

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR  
VAZIRLIGI**

**GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI**



«Tasdiqlayman»

Guliston davlat universiteti  
rektori M.Xodjiyev

“ 04 ” 08 2023 y.

**TEXNIKUM BITIRUVCHILARINI OLIV TA‘LIM  
MUASSASASI 60721200- YENGIL SANOAT BUYUMLARI  
KONSTRUKTSIYASI VA TEXNOLOGIYASI (ISHLAB  
CHIQRISH TURLARI BO‘YICHA) BAKALAVRIAT  
TA‘LIM YO‘NALISHIGA YAKKA TARTIBDAGI SUHBAT  
ORQALI QABUL QILISH UCHUN**

**BAHOLASH MEZONLARI  
VA KIRISH SUHBATI SAVOLLARI**

**Guliston – 2023 yil**

## Annotatsiya

Mazkur baholash mezonini O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 11 yanvardagi "Texnikumlarni muvaffaqiyatli tamomlagan bitiruvchilarni oliy ta'lim muassasalarining bakalavriat ta'lim yo'nalishlariga suhbat asosida o'qishga qabul qilish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida" 17-son qaroriga asosan tayyorlandi.

Texnikumlarni muvaffaqiyatli tamomlagan bitiruvchilarni oliy ta'lim muassasalarining bakalavriat ta'lim yo'nalishlariga suhbat asosida o'qishga qabul qilish uchun o'tkaziladigan suhbat jarayonlari uchun tuzilgan na'munaviy savollar mamlakatda o'z sohasiga oid amalga oshirilayotgan islohotlarning mohiyati va ahamiyatini tushunish, bakalavriat ta'lim yo'nalishini tanlashda motivatsiya (soha kasbining mohiyati va ijtimoiy ahamiyatini tushunish, unga doimiy qiziqish ko'rsatish); shaxsiy-kasbiy xususiyatlar (o'qishga qobiliyat, kasbiy vazifalarni hal qilishda amaliy faoliyat, intizomlilik, hamjihatlik, mas'uliyatlilik, qaror qabul qilishda mustaqillik darajasi, shaxsiy yutuqlar mavjudligi, shuningdek, o'z ustida ishlash va ijodkorlik qobiliyatlari), tanlangan bakalavriat ta'lim yo'nalishi sohasidagi bilim va kasbiy ko'nikmalarning mavjudligi kabi masalalar o'z aksini topgan.

Ushbu baholash mezonini guliston davlat universiteti kengashi tomonidan tasdiqlangan.

2023 yil " 27 " 07 " 13 " sonli majlis bayoni.

## Kirish

Bugungi kunda ta'lim sohasini tubdan takomillashtirish davr talabiga aylangan. Ushbu talabdan kelib chiqqan holda, ta'lim sohasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi qonunlar qabul qilinmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni 2020 yil 23 sentyabr kuni qabul qilingan bo'lib, uning maqsadi ta'lim sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat. Mazkur Qonunga asosan ta'lim sohasidagi asosiy prinsiplar, ta'lim tizimi, turlari va shakllari aniq belgilab qo'yildi.

Prezidentimizning 2019 yil 6 sentyabrdagi "Professional ta'lim tizimini yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" PF-5812-son Farmonini ijro etish maqsadida qaror bilan quyidagilar tasdiqlandi:

- Uzlüksiz boshlang'ich, o'rta va o'rta maxsus professional ta'lim to'g'risidagi nizom;
- Boshlang'ich professional ta'lim bosqichida kadrlar tayyorlaydigan kasb-hunar maktablarining namunaviy ustavi;
- O'rta professional ta'lim bosqichida kadrlar tayyorlaydigan kollejlarning namunaviy ustavi;
- O'rta maxsus professional ta'lim bosqichida kadrlar tayyorlaydigan texnikumlarning namunaviy ustavi.

Tizimida kollejlarda va texnikumlarda bo'lgan vazirliklar, idoralar va xo'jalik birlashmalariga tasdiqlangan namunaviy ustav asosida ularning ustavlarini ishlab chiqish hamda ularning faoliyatini ularga muvofiq yo'lga qo'yish topshirildi.

Quyidagilar professional ta'limning asosiy vazifalari hisoblanadi:

- ish beruvchilarning talab va takliflariga asosan kadrlarga bo'lgan real ehtiyojni inobatga olgan holda iqtisodiyot soha va tarmoqlari uchun zarur bo'lgan malakali mutaxassislarni tayyorlash hamda jamiyatning kasblar va mutaxassisliklarga bo'lgan talablarini qondirish;
- mehnat faoliyatida zamonaviy AKTni tatbiq qilish bo'yicha amaliy ko'nikmalarga ega bo'lgan kadrlarni tayyorlash;
- xorijiy ta'lim muassasalari bilan hamkorlikni rivojlantirish, zamonaviy innovasion o'quv loyihalarini birgalikda amalga oshirish uchun malakali xorijiy mutaxassislarni jalb etish;
- Xalqaro tasniflagich darajalari bilan uyg'unlashgan tabaqalashtirilgan ta'lim dasturlarini hamda o'qitishning kredit-modul tizimini bosqichma-bosqich joriy etish;

Xulosa o'rnida, ta'lim sohasidagi islohotlar ham bugungi kunda o'zining dolzarbligi hamda amaliy ahamiyati bilan boshqa sohalardagi islohotlardan aslo qolishmaydi. Chunki ushbu sohadagi islohotlarni yanada keng ko'lamda davom ettirish davr talabidir.

## Hujjatlarni qabul qilish

1. Bitiruvchilarni oliy ta'lim muassasasining 2-bosqichidan o'qishga qabul qilish uchun har yili oliy ta'lim muassasasi rektori (filial direktori) buyrug'i bilan qabul komissiyasi tuziladi.

Oliy ta'lim muassasasi rektori (filial direktori) qabul komissiyasining raisi hisoblanadi.

2. Bitiruvchilar har yili 5 iyuldan 25 iyulga qadar O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining rasmiy veb-sayti orqali onlayn ro'yxatdan o'tadilar.

3. Bitiruvchilar oliy ta'lim muassasalarining bakalavriat ta'lim yo'nalishlari bo'yicha ro'yxatdan o'tishida tizimga shaxsiy ma'lumotlarini kiritishi va quyidagi hujjatlarni yuklashi talab etiladi:

pasport yoki ID-karta nusxasi;

texnikumni bitirganlik to'g'risidagi hujjat va unga ilovaning nusxasi.

Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan vazirlikning rasmiy veb-sayti orqali bitiruvchilarni ro'yxatdan o'tkazish jarayonlari muvofiqlashtirilib boriladi.

4. Onlayn ro'yxatdan o'tgan bitiruvchilarning tizimga yuklangan hujjatlari oliy ta'lim muassasalari qabul komissiyalari tomonidan har yili 5 avgustga qadar o'rganib chiqiladi va o'rganish natijalari bo'yicha abituriyentlarning shaxsiy kabineti orqali ularga xabar beriladi.

5. Bitiruvchilar tomonidan topshirilgan hujjatlarning qalbakiligi aniqlanganda, u suhbatdan (talabalikka qabul qilingandan keyin aniqlansa, talabalikdan) chetlashtiriladi hamda hujjatlari belgilangan tartibda huquqni muhofaza qiluvchi organlarga yuboriladi.

## Suhbat jarayonini tashkil etish va o'tkazish

1. Oliy ta'lim muassasasi rektori (filial direktori) har yili 10 avgustga qadar o'z buyrug'i bilan har bir ta'lim yo'nalishi bo'yicha alohida Suhbat komissiyasini tuzadi.

Suhbat komissiyasi 9 nafardan kam bo'lmagan tarkibda tuziladi va uning tarkibiga kadrlarning asosiy ish beruvchilari bo'lgan tashkilotlar va oliy ta'lim muassasasi bo'ysunuvi bo'yicha vazirliklar va idoralarning mas'ul xodimlari, sohaga taalluqli texnikumning malakali o'qituvchisi hamda boshqa oliy ta'lim muassasasining tegishli soha bo'yicha professor-o'qituvchisi kiritiladi.

2. Texnikumlarni muvaffaqiyatli tamomlagan bitiruvchilarni oliy ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilish bo'yicha suhbat jarayoni to'liq videokuzatuv ostida o'tkaziladi va jarayon ota-onalar, kuzatuvchilar uchun ajratilgan alohida kutish joyiga ovozli tarzda onlayn translyasiya qilib boriladi.

Suhbat jarayoni to'liq va sifatli videokuzatuv ostida o'tkazilishini va videoyozuvlarning kamida uch yil oliy ta'lim muassasasida saqlanishini ta'minlash mas'uliyati shaxsan oliy ta'lim muassasasi rektori (filial direktori) zimmasiga yuklatiladi.

3. Bitiruvchilarni oliy ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilish bo'yicha o'tkaziladigan suhbat jarayoni har yili 10 avgustdan 25 avgustgacha, oliy ta'lim muassasasi tomonidan belgilangan muddatda, Suhbat komissiyasi tarkibining kamida uchdan ikki qismi ishtirok etgan taqdirda o'tkaziladi.

Suhbat o'tkazish muddatlari suhbat jarayonlari boshlanishidan kamida bir hafta oldin oliy ta'lim muassasasining rasmiy veb-saytida e'lon qilinadi.

Suhbat jarayoniga jamoatchilik vakillari ham xolis kuzatuvchi sifatida jalb etilishi mumkin.

4. Belgilangan muddatlarda suhbatga kelmagan bitiruvchilarga shu o'quv yili uchun qayta suhbat o'tkazilmaydi va ular oliy ta'lim muassasasi bakalavriat ta'lim yo'nalishining 2-bosqichidan o'qishga qabul qilinmaydi.

Bitiruvchi uzrli sabablarga ko'ra (kasalligi, xizmat safarida bo'lganligi yoki oila a'zolarining vafot etganligini tasdiqlovchi hujjatni taqdim etganda) suhbatda ishtirok eta olmaydigan bo'lsa yoki ishtirok etmasa, suhbat o'tkazilgan sanadan uch kundan kechikmay oliy ta'lim muassasasida tuzilgan qabul komissiyasiga murojaat etishi lozim. Mazkur toifadagi bitiruvchilar uchun suhbat jarayonlari to'liq yakunlanganidan so'ng bir hafta muddat ichida qo'shimcha suhbat o'tkaziladi.

5. Savollar oliy ta'lim muassasasi qabul komissiyasi tomonidan ishlab chiqilib, qabul komissiyasi raisi tomonidan tasdiqlanadi.

6. Suhbat jarayonida Suhbat komissiyasining har bir a'zosiga ushbu Nizomga 1-ilovaga muvofiq namunaviy shakldagi bitiruvchining suhbat natijalarini qayd etish varag'i (keyingi o'rinlarda - suhbat natijalarini qayd etish varag'i) beriladi.

Suhbat komissiyasi a'zolari tomonidan suhbat natijalarini qayd etish varag'iga har bir bitiruvchi bilan o'tkazilgan suhbat natijasiga ko'ra ball belgilab boriladi va imzolanadi.

### **Texnikum bitiruvchilarini oliy ta'lim muassasasi bakalavriat ta'lim yo'nalishiga suhbat asosida qabul qilish uchun BAHOLASH MEZONLARI**

Suhbat jarayonida bitiruvchilarning har biriga

- 1) Mamlakatda o'z sohasiga oid amalga oshirilayotgan islohotlarning mohiyati va ahamiyatini tushunish.
- 2) Bakalavriat ta'lim yo'nalishini tanlashda motivasiya (soha kasbining mohiyati va ijtimoiy ahamiyatini tushunish, unga doimiy qiziqish ko'rsatish).
- 3) Shaxsiy-kasbiy xususiyatlar (o'qishga qobiliyat, kasbiy vazifalarni hal qilishda amaliy faoliyat, intizomlilik, hamjihatlik, mas'uliyatlilik, qaror qabul qilishda mustaqillik darajasi, shaxsiy yutuqlar mavjudligi, shuningdek, o'z ustida ishlash va ijodkorlik qobiliyatlari).
- 4) Tanlangan bakalavriat ta'lim yo'nalishi sohasidagi bilim va kasbiy ko'nikmalarning mavjudligi bo'yicha jami to'rtta savol beriladi.

Har bir variantda 4 tadan savollari mavjud bo'lib, har bir to'g'ri javob uchun 25 ball beriladi. Savollar uchun eng yuqori ball – 100 ballni tashkil etadi. Suhbat natijalari quyidagi mezonlar bo'yicha to'plagan umumiy bali quyidagicha baholanadi.

<b>T/r.</b>	<b>To'g'ri javob</b>	<b>Baho</b>	<b>Xususiy ball</b>
1	4	A'lo	90-100
2	3	Yaxshi	78-89
3	2	Qoniqarli	67-78
4	1	Qoniqarsiz	0-66

25 balldan Har bir savol uchun	Berilgan javobiga qo'yiladigan talablar
20-25 ball	Agar suhbat davomida talabgor tomonidan har bir savolning mohiyati Qonunlar, prezident farmonlari, Hukumat qarorlaridan foydalanilgan va har bir savolga oid muammolarni har tomonlama tahlil qilgan holda ochib berilgan hamda javoblarni tushunarli tarzda bayon etgan va ilmiy ma'lumotlarni umumlashtira olish salohiyatini namoyon etgan bo'lsa. Berilgan savolga to'g'ri va to'liq javob bergan. Savolning mazmuni, mohiyati to'g'ri va izchil yoritilgan. Savolga javo berishda ijodiy yondoshilgan, javob mantiqiy yaxlitlikka erishilgan.
15-20 ball	Agar savolning mazmuni ochib berilgan, meyoriy-huquqiy hujjatlardan foydalanilgan, lekin savollarga oid muammolarni har tomonlama to'liq tahlil etilmasa. Berilgan javobga to'g'ri javob berilgan. Savolning mazmuni to'liq yoritilgan. Qisqacha xulosa bergan. Fikrlarni sodda bayon etgan.
10-15 ball	Agar savolga javob berilgan bo'lsa, biroq fikrlar bayonida tarqoqlik kuzatilsa, javoblar qonun hujjatlariga amaliyot tahliliga to'liq asoslanmagan bo'lsa, savollarga oid muammolarni har tomonlama to'liq tahlil etmagan bo'lsa. Berilgan savolga to'g'ri javob berilgan, lekin berilgan savolning mazmuni to'liq yoritilmagan. Misollar bilan asoslanmagan.
0-10	Agar talabgor tomonidan savolning mohiyati to'liq yoritib berilmasa, savolga tegishli qonunlar va amaliy materiallardan to'liq etarli darajada foydalanilmasa, hamda tahliliy xulosalar asoslanmagan bo'lsa. Berilgan savolga javob noto'g'ri yoki yuzaki javob berilgan. Savol bo'yicha aniq tasavvurga ega emas.

Muayyan ta'lim yo'nalishi (guruh) bo'yicha suhbat jarayoni yakunlangach Suhbat komissiyasi a'zolari tomonidan to'ldirilgan suhbat natijalarini qayd etish varaqlaridagi ballar hisoblab chiqiladi va shu asosida ushbu Nizomga 2- ilovaga muvofiq namunaviy shakldagi bitiruvchi bilan o'tkazilgan suhbatning yakuniy natijalarini qayd etish varag'i (keyingi o'rinlarda - suhbatning yakuniy natijalarini qayd etish varag'i) to'ldirilib, Suhbat komissiyasi tomonidan tasdiqlanadi.

Suhbat komissiyasi tomonidan tasdiqlangan suhbatning yakuniy natijalarini qayd etish varag'iga asosan Suhbat komissiyasining ishtirok etgan a'zolari tomonidan qo'yilgan ballarning o'rtachasi 67 ball va undan yuqori bo'lganda abituriyent suhbatdan o'tgan hisoblanadi.

Muayyan ta'lim yo'nalishi (guruh) bo'yicha o'tkazilgan suhbat natijalariga ko'ra suhbatdan o'tganlar ro'yxati shu kunning o'zida abituriyentlarga o'qib eshittiriladi.

Oliy ta'lim muassasasida suhbatlar o'tkazilishi davrida belgilangan tartibda apellyasiya shikoyatlarini ko'rib chiqish uchun apellyasiya komissiyasi tashkil etiladi.

Apellyasiya shikoyatlari suhbat natijalari e'lon qilingan vaqtdan boshlab 24 soat ichida oliy ta'lim muassasasida to'g'ridan-to'g'ri yozma shaklda yoki Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining rasmiy veb-sayti orqali onlayn shaklda qabul qilinadi va appelyasiya komissiyasi tomonidan murojaat qilganlarning sonidan kelib chiqqan holda bir kundan uch kungacha bo'lgan muddatda videoyozuv asosida ko'rib chiqiladi.

Suhbat natijalariga ko'ra talabalikka tavsiya etilganlar to'g'risidagi ma'lumotlar natijalar e'lon qilingan kundan boshlab uch kun muddatda oliy ta'lim muassasasi rektori (filial direktori) tomonidan bo'ysunuvi bo'yicha vazirlik, idoraga taqdim etiladi.

Suhbat komissiyasining suhbat natijalarini qayd etish hamda suhbatning yakuniy natijalarini qayd etish varaqlari uch yil oliy ta'lim muassasasida saqlanadi.

## Suhbat jarayonida beriladigan namunaviy savollar to'plami

### 60721200- YENGIL SANOAT BUYUMLARI KONSTRUKTSIYASI VA TEXNOLOGIYASI (ISHLAB CHIARISH TURLARI BO'YICHA) BAKALAVRIAT YO'NALISHI UCHUN KIRISH SUHBATI SAVOLLARI

Mamlakatimizda o'z soxasiga oid amalga oshirilayotgan isloxotlarning mohiyatiga ahamiyatini tushunish;

1. O'zbekistonda yirik sanoat tarmoqlarini sanab o'ting
2. Yengil sanoat tarmoqlarini sanab o'ting
3. Klaster tizimi tushunchasiga ta'rif bering
4. Sirdaryo viloyatidagi yirik klaster korxonalariga misol ayting
5. Yengil sanoat ishlab chiqarish korxonalarining asosiy xom ashyolari sanab o'ting
6. "O'zto'qimachilik sanoat" uyushmasi qachon tashkil topgan
7. "O'zto'qimachilik sanoat" uyushmasi tarkibiy tuzilmasi
8. Iqtisodiyot va sanoat vazirligi tarkibiy tuzilmasi
9. Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi tarkibiy tuzilmasi
10. To'qimachilik, tikuv-trikotaj sanoati xodimlari kuni qachon nishonlanadi;
11. O'zbekiston respublikasida pillachilik va qorako'lchilikni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risidagi farmon qachon ishlab chiqilgan
12. 2021—2025-yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasida qorako'lchilikni rivojlantirishning maqsadli parametrlari farmonning qaysi ilovalarida keltirib o'tilgan.
13. Ipakchilik va jun sanoatini rivojlantirish qo'mita ning asosiy vazifasi nimalardan iborat.
14. Pillachilik va qorako'lchilik bilan shug'ullanuvchi tadbirkorlik subektlariga Agroxizmatlar markazlari orqali bilimlar berish, ularni ilmiy-amaliy qo'llab-quvvatlash va xizmatlar ko'rsatish tizimi joriy etilishini ta'minlash to'g'risida, O'zbekiston respublikasida pillachilik va qorako'lchilikni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risidagi farmonning qaysi bandida ko'rsatib o'tilgan.
15. Bugungi kunda qaysi davlatlarning kiyim kechaklari import bo'lib kirib kelayapti va buni qanday izoxlaysiz
16. Oliy ta'lim muassasalarida qanday yengil sanoat soxa muxandislari yetishib chiqishmoqda.
17. Yengil sanoat rivojlanish bosqichlarini qanday izoxlaysiz
18. Ilk mustaqillik davrida yengil sanoatni rivojlanish qanday chora-tadbirlar amalga oshirilgan.
19. "Paxta ishi" bo'yicha nimalarni bilasiz
20. Tikuv buyumlarini loyihalashning avtomatlashtirilgan tizimi deganda nimani tushunasiz
21. Avtomatlashtirish soxaning qaysi bosqislarini o'z ichiga oladi.



22. Tikuv buyumlarini ishlab chiqarishni takomillashtirishni ahamiyati tushuntirib bering.
23. "O'zbekipaksanoat" ning tarkibiy tuzilmasi xaqida ma'lumot bering.
24. Yengil sanoat maxsulotlarini sifatini nazorat qilish nimalarga asoslangan.
25. Yengil sanoat maxsulotlarini standartlar yoki sertifikatlashtirishning ahamiyati
26. Respublika standartlashtirish va sertifikatlashtirish markaz xaqida ma'lumot bering.
27. Sirdaryo asosan paxtaning qaysi navlari etishtiriladi va buni nima bilan izohlaysiz.
28. O'zbekistonda asosan paxtaning qaysi navlari etishtiriladi. Viloyatlar kesimida izohlang
29. Respublikamizda ipakchilikni rivojlantirish yo'lida qanday chora tadbirlar ishlab chiqilgan.
30. Ipak ishlab chiqarish, eksporti bo'yicha O'zbekiston qaysi davlatlar qatori yetakchi o'rinlarda turadi.
31. Yengil sanoat maxsulotlarini sifatini nazorat qilish nimalarga asoslangan.
32. Yengil sanoat maxsulotlarini standartlar yoki sertifikatlashtirishning ahamiyati
33. Respublika standartlashtirish va sertifikatlashtirish markaz xaqida ma'lumot bering.
34. Sirdaryo asosan paxtaning qaysi navlari etishtiriladi va buni nima bilan izohlaysiz.
35. Paxtaga dastlabki ishlov berish korxonalarini qanday imkoniyatlari yaratilayapti
36. Nima uchun paxtadan tolasiga bo'lgan extiyoj oshib bormoqda
37. Zamonaviy mutaxassis sizningcha qanday bo'lishi kerak
38. O'zbekistonga ilk bor kirib kelgan tikuv buyumlarini loyihalashni avtomatlashtirish dasturlari.
39. LEKTRA , GERBER, JENIMI dasturlari xaqida nimalar bilasiz
40. O'rta va kichik korxonalarni tashkil etishning ahamiyati va afzalliklari xaqida yoriting.
41. Xotin-qizlarga ajratilayotgan imtiyozli kreditlardan foydalangmisiz va qanday yo'naltirdingiz
42. OTM kirish uchun xotin qizlarga ajratilayotgan maqsadli va imtiyozli kvotalar xaqida ma'lumot bersangiz
43. Beshta muxim tashabbus qachon ishlab chiqilgan
44. Gilamchilik rivojlangan voxalarni sanab o'ting
45. Trikotaj korxonalarining sanoatimizdagi o'rni
46. Beshinchi tashabbus nima deb ataladi va buni qanday izohlaysiz
47. Oila va xotin-qizlar bilan ishlash, mahalla va nuroniylarni qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida qonun farmon ishlab chiqilgan
48. Oila va xotin-qizlar bilan ishlash, mahalla va nuroniylarni qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida qonun farmonining mazmun mohiyati to'g'risida qisqacha ma'lumot bering.
49. Aralash toalali gazlamalrni ishlab chiqarishning ahamiyatini aytib bering
50. Ipak tolasidan tayyorlanadigan gazlamalarimizga misol ayting

**Bakalavriyat ta'lim yo'nalishini tanlashda motivatsiya (soxa kasbining mohiyat va ijtimoiy ahamiyatini tushunish, unga doimiy qiziqish ko'rsatish)**

1. Tikuv bumlarini loyixalash fanini o'tilishidan maqsad.
2. Tikuv buyumlarini loyixalashning predmet iva metodini tavsiflang
3. Zamonaviy kiyim deganda qanday kiyimlar tushuniladi.
4. Kiyim to'g'risida umumiy tushunchangizni, sinflab tushuntiring
5. Maxsulotning sifat ko'rsatkichi nima va unga qanday talablar qo'yiladi
6. Kiyim loyixalash jarayoni qanday bosqichlardan iborat
7. Odam gavdasi va qadi-qomati tuzilishi turlarini tushuntiring
8. Ayollar gavda tuzilishini tushuntiring
9. Gavdadan ulchov olish, bo'y va to'lalilik guruxini aniqlashni tushuntirib bering
10. Farqsizlik intervali deganda nimani tushunasiz
11. Kiyimni loyixalashda konstruktiv tuzilishi va tashki shakli xarakteristikasini tavsiflang
12. Kiyimlarni konstruksiyalashda ularning sinflanishi va umumiy printsiplari
13. To'kislik qo'shimchasi nima
14. Kiyim paketi qalinligi va kompozitsion qo'shimchalar
15. Kiyimning shakli va ichki razmerlari
16. Kiyim detallari yoyilmasini dastlabki chizmasini konstruksiyalash usullari
17. Bazis to'ri nima
18. Kiyim yoyilmasi xaqida umumiy tushuncha
19. O'tkazma yenglarni konstruksiyalash usullari va konstruksiyasi tavsifi
20. Yenglarga qo'yiladigan talablar
21. Qanday yeng turlarini mavjud
22. Turli shakl va o'lchamdagi yoqalarni konstruksiyalash xususiyatlari
23. Qanday yoqa turlari mavjud
24. Yokalarga kanday talablar kuyiladi
25. Bel kiyimlarini loyixalash va ularning qanday usullari mavjud
26. Qanday shim turlari mavjud
27. Qanday yubka turlarini bilasiz
28. Belli kiyimlarni konstruksiyasini ko'rishda qanday o'lchamlar olinadi
29. Kiyim nuqsonlari va ularni bartaraf etish deganda nima tushuniladi
30. Konstruktiv nuqsonlar qanday nuqson
31. Texnologik nuqsonlarni tushutiring
32. Kiyimlarni konstruktiv modellashtirishning umumiy printsiplari va usullari
33. Konstruktiv modellashtirish uchun dastlabki ma'lumotlar qanday tayyorlanadi
34. Bazali konstruksiyadan foydalanib konstruktiv modellashtirishning 4 xil usulini tushuntiring

35. Bazali konstruktsiyani shaklini o'zgartirmasdan konstruktiv modellash usullari
36. Konstruktiv modellashda vitochka kuchirish, taxlama va taqilmalar, cho'ntak lifini qo'shimcha bo'laklashni tushuntiring
37. Bazali konstruktsiyani shaklini o'zgartirib konstruktiv modellash usullari
38. Kiyimlarda detallarni konus va parallel kengaytirish
39. Yaxlit bichimli kiyimlarni konstruktsiyalash xususiyatlari
40. Mayin xajmli yelka kiyimlarini o'tkazma yangli bazali konstruktsiya asosida konstruktiv modellash
41. Tikuvchilik asoslari faninig mazmuni, yuqori sifatli tikuvchilik buyumlarini ishlab chiqarishda tikuvchilik sanoatini rivojlantirishni asosiy yo'nalishlari, bozor iqtisodiyoti va milliy xunarmandchilikka bog'liqligi
42. Texnik meyoriy xujjatlar nima
43. Tikuv korxonasiidagi bajariladigan ishlar va ularning bosqichlari
44. Ustki kiyim detallarini nomi va konstruktsiyasi
45. Kiyimlarni asosiy belgilariga qarab tashqi ko'rinishi tafsiloti
46. Kiyimlarni ishlab chiqarishga tayyorlashda tajriba sexining urn iva vazifasi
47. Modellarni ishlab chiqarishga tushirishga tushirishni takomillashtirish yo'llari
48. Kiyim bo'laklarini ipli birlashtirishni tavsiflang
49. Baxya va baxyaqator choklar xaqida tushuntiring
50. Baxyaqator choklarni bildiradigan belgilar

**Shaxsiy kasbiy xususiyatlarni ( o'qishga qobiliyat, kasbiy vazifalarni hal qilishda amaliy faoliyat, intizomlilik, hamjihatlilik, ma'suliyatlilik, qaror qabul qilishda mustaqillik darajasi, shaxsiy yutuqlarini mavjudligi, shuningdek, o'z ustida va ijodkorlik qobiliyati);**

1. Mustaqillik O'zbekiston Respublikasiga qanday huquqlarni berdi?
2. Mamlakat mustaqil bo'lishi uning har bir fuqarosi uchun qanday ahamiyatga ega, «Mustaqil inson» deganda siz qanday insonni tushunasiz?
3. Inson huquq va erkinliklarini kafolatlari bosh qomusimizning qanday normalari bilan belgilagan?
4. «Ijtimoiy adolat» deganda nimani tushunasiz?
5. Shaxs tushunchasiga ta'rif bering?
6. «Inson kapitali» deganda nimani tushunasiz?
7. «Insonning ma'naviy boyligi» deganda nimani tushunasiz?
8. «Jamiyat» deganda nimani tushunasiz?
9. Davlat deganda nimani tushunasiz?
10. Davlatning iqtisodiy vazifalariga nimalar kiradi?
11. Davlatning ijtimoiy vazifalariga nimalar kiradi?
12. Davlatning siyosiy-huquqiy vazifalariga nimalar kiradi?

13. Davlatning madaniy-ma'rifiy vazifalariga nimalar kiradi?
14. Davlatning moliyaviy vazifalariga nimalar kiradi?
15. Insonparvarlik printsipli haqida so'zlab bering?
16. Fuqarolar teng huquqliligining buzilishi haqida qanday ma'lumotga egasiz?
17. Fuqarolarning teng huquqliligini buzish deganda nimani tushunasiz?
18. Shaxsiy hayot daxlsizligini buzish deganda nimani tushunasiz?
19. Mehnat huquqi va mehnatga oid munosabatlar tushunchasiga ta'rif bering?
20. Mehnat to'g'risidagi qonun hujjatlarining vazifalari haqida gapirib bering?
21. Mehnat qonun hujjatlarining manbalarini sanab bering?
22. Mehnatga oid munosabatlar ishtirokchilari (sub'ektlari)ni sanab bering?
23. Mehnat huquqining asosiy tamoyillari haqida gapirib bering?
24. "Oila" tushunchasiga ta'rif bering va oilaning tayanch ustunlari haqida nimalarni bilasiz?
25. Milliy qadriyat deganda nimani tushunasiz?
26. Vatanparvarlik deganda nimani tushunasiz?
27. Buyuk ma'rifatparvar bobomiz Abdulla Avloniyning asarlari va tarbiyaga oid aytgan fikrlari haqida gapirib bering?
28. Fikr nima va odamlarning orzu niyatlariga qarab fikrlar necha xil bo'ladi?
29. G'oya deganda nimani tushunasiz?
30. Milliy g'oya qanday shakllanadi, uning ijodkori kim?
31. Adolat g'oyasi deganda nimani tushunasiz?
32. Madaniyat deganda nimani tushunasiz?
33. Komil inson deganda nimani tushunasiz?
34. Xudbinlik deganda nimani tushunasiz?
35. Mahalliychilik deganda nimani tushunasiz?
36. Kamtarlik va manmanlik haqida nimalarni bilasiz?
37. Milliy qadriyatlar nima?
38. Milliy g'oya tushunchasiga izoh bering?
39. Milliy g'urur nima?
40. Milliylik nima?
41. Mustamlakachilik nima?
42. Mustaqillik tushunchasiga izoh bering?
43. Mustaqillik g'oyasi nima?
44. Uchta maqol aytib, izohlab bering?
45. "Vatan - ostonadan boshlanadi", siz buni qanday tushunasiz?
46. Sizningcha —Ustoz-otangdan ulug'—mi yoki —Ustoz otangdek ulug'—mi? Izoh bering?
47. Internetda qaysi saytlarga kirib turasiz va bilgan saytlaringizni sanab bering?
48. Dunyoning mashhur brendlari aytib bering?
49. O'zbekning do'ppisi haqida gapirib bering?

50. Innovatsion usul deganda nimani tushunasiz?

**Tanlangan bakalavriyat ta'lim yo'nalishi soxasidagi bilim va kasbiy ko'nikmalarning mavjudligi**

1. Tikuv va tikuv trikotaj xaqida umumiy ma'lumot
2. Tikuvchilik mashinasozligining rivojlanish tarixi
3. Mashina ignalarining tasnifi, tikiladigan matoga binoan raqami
4. To 'g'ri baxyaqatorli choklovchi mokili tikuv mashinasiga ta'rif bering
5. Moki baxyaqatorlar xususiyati va baxyaqator xosil bo'lish printsiplari
6. Universal tikuv mashinalari tugrisida ma'lumot bering
7. Materiallarni solqi qilib baxyakator yuritadigan mashinalar
8. Tikuv mashinalarida ishlatiladigan moslamarni ayting
9. Tikuv mashinalariga texnik xizmat ko'rsatish jarayonlari va turlari
10. Siniq baxyaqatorli tikuv mashinalarini to'g'risida ma'lumot bering
11. Zamonaviy kashta tikish va siniq baxya xosil qiladigan mashina va ularning afzalliklari
12. Siniq baxyaqator xosil qiladigan mashinalarning tuzilishi
13. Mashinani sozlash va moylash tartibi
14. Tikuvchilik mashinalarida xosil bo'ladigan nuqsonlar va ularni sozlash tartibi
16. Bichish bulimii jixozlari tugrisida suzlang
17. Namlab isitib ishlov berish jixozlarini turlari
18. Namlab isitib ishlov berish jixozlarini ishlatish printsiplari va vazifasi
19. Elektr dazmollarini turlari va ishlash printsiplari
20. Tayyorlov bo'lim jixozlari to'g'risida so'z yuriting
21. Bichish bulimii jixozlari tugrisida suzlang
21. Mashinalarning tuzilishi va ishlash printsiipi
22. Sinov tayanch bo'limini jixozlari to'g'risida so'zlang
23. Tayanch bo'limlarda ishlatiladigan jixozlar
24. Kostyum kompozitsiyasining asosiy tushunchalari va turlari
25. Kostyum kompozitsiyasi kategoriyalarini sanab o'ting
26. Siluet va chiziq turilari
27. Kostyum kompozitsiyasining asosiy qonuniyatlari
28. Kostyumda kompozitsion markazning o'rni
29. Kompozitsion markazni bo'rtirish qonuniyati nima
30. Proportsiya va nisbatni tushuntiring
31. Proportsiya turlari
32. Oddiy nisbatlarning kompozitsiyadagi o'rni
33. Irratsional nisbatlarni tuzish qonunlari
34. Simmetriya va assimetriya turlari va farqi

35. Illyuziyalar turlari
36. Optik-geometrik illyuziyalarni tushuntirig
37. Kostyum kompozitsiyasida ranglar illyuziyasi
38. Illyuziyalarning inson qomati ko'rinishiga ta'siri
39. Uslub va moda nima
40. Odamning qo'l va oyoqlarini anatomik tuzilishini ta'riflang
41. Modelni tasvirlashda applikasiya va enkaustikani yaratish
42. Kiyim modelini va konstruksiyasini xomaki chizmasini chizish tartibi
43. Odam gavdasini xomaki chizmasini chizish tartibi va qoidalari
43. Listochka tikish texnologiyasi.
44. Nam issiqlik bilan ishlov berish operatsiyalari
45. Gazlama sifatini nazorat qilish
46. Buyum etagiga ishlov berish texnologiyasi.
47. Yelimlarga qo'yiladigan talablar
48. Buyum detallarini payvandlab ishlov berish.
49. Asosiy bo'laklarga ishlov berish texnologiyasi.
50. Gazlamani qabul qilish qurilmalari.

kafedra mudiri:  R. Magzudov